

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI FAOLIYATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

Davlatbek Xurramov

davlatbekxurramov2004@gmail.com

TERDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik tushunchasi nazariy rivojlanishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarishning iqtisodiy ahamiyatini tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi va tahlili, kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar ko'rsatkichlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llarini boshqarishda inobatga olish kerak bo'lgan xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiyot, subsidiya, menejer, kredit, Respublika, prezident, biznesmen,

Kirish

Albatta iqtisodiyot juda katta soha hisoblanadi. Shu sababli kichik biznes va tadbirkorlikni o'rni ham iqtisodiyot uchun juda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi taraqqiyot strategiyasi bosqichida ham barcha uchun tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish katta maqsadlardan biri bo'lib turibdi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham joriy yilni yoshlarni qo'llab quvvatlash va biznesni rivojlantirish deb nomlagani bejiz emas albatta. Bu ishlarni iqtisodiyotimizni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishning rivojlanishning ikkinchi bosqichida boshlang'ich qadamlari desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash imkonini beradi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotimizda asosiy pog'onalarni tashkil etishining ya'na bir sababi shuki, bu tarmoqlar jahon iqtisodiyotida ham ya'ni boshqa davlatlar iqtisodiyotida ham katta rol o'ynaydi. "Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi kerak... hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, barcha tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi... Tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar va kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratiladi. Ular uchun soliq stavkalari har xil bo'ladi". Kichik biznes va xususiy

tadbirkorlikning rivojlanish bosqichidagi ahamiyati jahon olimlari ilmiy-nazariy izlanishlari, avvalambor, “kichik biznes”, “biznesmen” va “biznes” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ana shu tushunchalarning asl mohiyatini aniqlamasdan turib, uning boshqaruvini takomillashtirishga erishib bo‘lmaydi.

Asosiy qism

Bugungi sharoitda «tadbirkor» tushunchasi «menejer» tushunchasiga juda yaqin turadi. Shu bilan birga, tadbirkor mulkdor bo‘lsa, menejer boshqaruvchidir. Amalda esa, aksariyat mulkdorlar menejer funksiyasini bajaradi, qator menejerlar esa o‘zlari boshqarib turgan ishlab chiqarish korxonalariga ega bo‘lib qolmoqda. «Tadbirkorlik» tushunchasi tadbirkorning ensiklopedik lug‘atida quyidagicha ta’riflanadi: Tadbirkorlik - (ingl. yenterprise) shaxsiy daromad, foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati. Bu faoliyat o‘z nomidan, o‘z mulkiy mas’uliyati va yuridik shaxsning yuridik mas’uliyati evaziga amalga oshiriladi. Tadbirkorlik shaxsiy va ijtimoiy foydalarni ko‘zlagan holda daromad olish uchun sarflanayotgan mablag‘ bilan bog‘liq faoliyatdir. Tadbirkorlikka berilgan ushbu ta’rif batafsilligi bilan ajralib turadi. Bu ta’rifda tadbirkorlik faqat ma’lum faoliyat bilan shug‘ullanish emas, balki bevosita faoliyat ko‘rsatishdan iboratligi ta’kidlangan. Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarishning iqtisodiy ahamiyati ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozorda sotilishini, ularni tashish bilan bog‘liq bo‘lgan transport xarajatlarining eng kam darajada bo‘lishi va mahsulotlarning sifatli tarzda mintaqa aholisi iste’moliga yetkazib berilishida ifodalanadi. Bilishimcha jahon iqtisodiyoti amaliyotida kichik ishlab chiqarish shakllarining yirik korxonalariga nisbatan umumiy salmog‘i, yalpi ichki mahsulotdagi, faoliyat olib borayotgan korxonalar sonidagi ulushi, shuningdek, bandlikni ta’minlashdagi roli yuqori. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda kichik va orta biznesning YaIMdagi ulushi 50 foizdan ortiq, ba’zi mamlakatlarda esa, 60–70 foizgacha. Ularning korxonalar umumiy sonidagi ulushi ba’zi hollarda 95–98 foizgacha, umumiy bandlikdagi ulushi esa, 60-80 foizni tashkil etar ekan. Oxirgi 10 yil davomida ro’yhatga olingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni deyarli ikki baravarga ko‘paydi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston aholisining har 1000 nafariga to‘g‘ri keladigan faoliyat olib borayotgan kichik biznes tuzilmalarining soni 15.4 birlikni tashkil etayotgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Moldovada – 11,5 tani, Qozog‘istonda -9,8 tani. Ukrainada – 7,2 tani, Belarusda – 6,3tani, Ozarboyjonda - 1,6tani tashkil etadi.

Kutatishiz mumkinki,so‘ngi olti-yetti yillikni oladigan bo‘lsak davlatimiz rahbari tomonidan mitasaddilarga barcha javhadagi tadbirkorlik faoliyatlariga kreditlar berish va davlat yerlaridan bir necha yillarga ijaraga berish kabi topshiriqlar berildi.Albatta bu kreditlarni yoki yerlarni olish uchun tadbirkorlardan bir necha yillarga ko‘zlangan va puxta tuzilgan biznes rejalar talab etildi va bu

ishlarning ijrosini ko'plab tumanlarda kuzatdik. Shu sababli, prezidentimizning bu topshiriqlari ham tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash masalasini xal qilishga ham katta e'tibor berib kelinmo-da. Xususan, so'ngi yillarda hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida 1 millionga yaqin ish orinlari yaratilgan bolsa, ularning 68 foizidan koprogi qishloq joylarda tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, yangi ish orinlarining 64 foizidan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, 28 foizidan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi.

Albatta, maqsad shunchaki tadbirkorlik faoliyatini ochib qo'yib soliq olayverish emas, balki tadbirkorlarni yanada yangilikka intiltirish, ishlab chiqarish salmog'ini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasini yanada samarali qilish, soliqlarni kamaytirish va bundan boshqa ham bir nechta imkoniyatlar berildi.

Bundan tashqari muhtaram prezidentimiz ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni faqat ichki bozorlarda emas eksport qilish uchun ham yetarli darajada talabga javob beradigan qilib ishlab chiqarish va eksport salmog'ini yanada oshirishni o'rtaga tashladilar. Bu ham iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun katta hissa qo'shuvchi omillardan biri sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, biz mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishini xohlar ekanmiz va Tashqo savdoimizni ya'ni eksport salmog'imizni oshirishni xohlar ekanmiz, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishimiz va undan maksimalniy darajada samarali foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BOBOEV A. Ch. O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI // INTERNAUKA. – 2018. – №. 20-2. – S. 82-84.

2. OLIMOVICH D. I., BAXTIYOROVICH T. M., CHORIEVICH B. A. DESCRIPTION OF TECHNOLOGICAL PROCESSES IN RESTAURANT SERVICES // JOURNALNX. – 2020. – T. 6. – №. 05. – S. 248-252

3. <https://fayllar.org/shodibekova-d-a-shodibekov-d-i-tadbirkorlik-va-kichik-biznes-a.html?page>

4. <https://lex.uz/docs/-6752402>

5. <https://cyberleninka.ru/article/n/hududlarda-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikni-rivojlantirish-yollari>